



## VOYAGA YETMAGAN BOLALARDA SALBIY HULQNING NAMOYON BO‘LISHI VA ULARNI BARTARAF ETISHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK TENDENSIYALARI

*Murtozayeva M.M.*

*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori v.b.,  
pedagogika fanlari doktori (DSc)*

**Таянч сўзлар:** ta'lim, tarbiya, bolalar, salbiy hulq, ijobiy, ijtimoiy, pedagogika, tendentsiya.

**Ключевые слова:** образование, воспитание, дети, негативное поведение, позитивное, социальное, педагогика, тенденция.

**Key words:** education, upbringing, children, negative behavior, positive, social, pedagogy, tendency.

**Резюме:** Maqolada voyaga etmagan bolalar o'rtasida salbiy hulqning namoyon bo'lishi, ularning oldini olish va paydo bo'lish sabablarini o'rganishga oid fikrlar yoritilgan. Shuningdek, bolalarda salbiy hulqning namoyon bo'lish sabablarini aniqlash, tahlil qilish va bartaraf etishning samarali tendentsiyalari ta'kidlangan.

**Резюме:** В статье освещаются идеи, связанные с проявлением негативного поведения среди несовершеннолетние дети, его профилактикой и изучением его причин. Также выделены эффективные способы выявления, анализа и устранения причин негативного поведения детей.

**Summary:** In the article, the ideas related to the manifestation of negative behavior among minor children, their prevention and study of the causes of their occurrence are highlighted. Effective trends in identify, analyzing and eliminating the causes of negative behavior in children are also highlighted.

Ilmsiz, ma'rifatsiz jamiyat va mamlakat taraqqiyotini tasavvur qilish mushkul. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilm-ma'rifatga alohida urg‘u berilishi va bu orqali raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish masalasi kun tartibiga qo‘yilishi iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy jihatdan kuchli, bozor iqtisodiyoti qonunlari to‘liq amal qiladigan demokratik davlat qurishga qaratilgan muhim qadamdir.

“Sharq donishmandlari aytganidek, “... Eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, Eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!” Shu sababli, hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi



bo'lish, uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak [1]. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar yuksalishlariga e'tibor berib qaraladigan bo'lsa, ularning negizida yosh avlod tarbiyasi turganligini anglash qiyin emas. Chunki, Vatanimizning porloq kelajagi voyaga yetayotgan farzandlarimiz qo'lida.

Ijtimoiy jamiyatda insonning o'zni alohida ahamiyatga ega. Har bir voyaga yetmagan bola ulg'aygach, o'z hayotining baxt-saodatini ta'minlash uchun ijtimoiy jamiyatdagi o'zini egallash zaruriyati paydo bo'ladi. Bu o'ringa o'zida uch axloqiy xususiyatni mujassamlashtirgan insongina egalik qiladi. Ular: tansihatlik, sog'lom fikr va yaxshi axloqdan iborat. Shu uch narsaning bittasidan ham mahrum bo'lgan odam o'z hayotining baxt-saodatini ta'minlay olishi muqarrar. Boshqa ibora bilan aytganda, baxt-saodat jismonan sog'lom, sog'lom fikrli va chiroyli xulqli insonga nasib etadi, shu jihatlarga ega bo'lgan kishilar turli xil badbaxtliklarni munosib kutib oladilar. Farzandining baxtsiz bo'lishini istamagan har bir ota uni mustaqil hayotga qo'yib yuborishdan oldin shu mazkur uchta axloqiy xislat bilan qurollantirib qo'yishi kerak. Tarbiyaning mahsuli ham shunday, ya'ni odamni tarbiya qilish uni jismonan, fikran va xulqan kamolga yetkazib, saodatga erishishga qobil qilishdan iborat.

Inson beshikdan to qabrgacha tarbiya olish qobiliyatiga ega bo'lsa-da, lekin uni bolalikdan tarbiyalash juda muhimdir. Olimlar ijtimoiylashuv deganda fuqaroviy va axloqiy tarbiyani tushunishadi. Shuningdek, yana bir guruh olimlar shaxs ijtimoiylashuvini tarbiyaning asosiy maqsadi deb hisoblashadi. Biroq tarbiya bola ijtimoiylashuvining asosiy omillaridandir. Tarbiyaning asosida ijtimoiy harakat bo'lishi, uni ijtimoiylashuvdan farqlaydi.

Umuman olganda, ijtimoiylashuv uzluksiz jarayondir, ya'ni inson doimo jamiyat bilan munosabatda bo'ladi. Tarbiya esa uzlukli jarayondir. Chunki u muayyan tashkilotlarda amalga oshirilib, zamon va makonda cheklangan bo'ladi. Jumladan, voyaga yetmagan o'smirlar orasida uyushgan jinoyatchiliklarni bartaraf etishning ijtimoiy-pedagogik va psixologik omillari sifatida ijtimoiy hodisa, faoliyat, jarayon, qadriyat, tizim, ta'sir, o'zaro munosabat sifatida ko'rib chiqsak bo'ladi.

Voyaga yetmagan bolalarning o'smirlik davrining o'ziga xosligi, bolalikdan kattalikka o'tishdir. Bu davr fiziologik rivojlanish va jinsiy yetilishning keskin jadallashuvi davridir. Bu davrga o'smirlar tomonidan shaxs salbiy hulqining namoyon bo'lishi va ularning almashinib turishi: goh muloqotga kirishuvchan, goh aksi, goh quvnok, goho esa g'amgin va shu kabilardir. Voyaga yetmagan o'smirning asosiy maqsadi - o'z-o'zini anglash va o'xshashlikni shakllantirish (tengdoshlaridek bo'lish). Bolalikdan kattalikka o'tish hamma ham tekis kechavermaydi. Shunga ko'ra o'smirlikda bola shakllanishi uch turga bo'linadi:

Birinchi tur uchun davrning ikkinchi marta dunyoga kelishdek jo'shqin, krizisli kechishi xosdir. Uning yakuni – yangi «Men»ning yuzaga kelishi. Bu



psixik pubertatlikning arafasi bo‘lib, 11-12 yoshli o‘smirda quyidagi alohida belgilar paydo bo‘ladi: beboshlik, urushqoqlik, bolalar o‘yinlari unga qiziq ko‘rinmaydi, undan kattarak o‘smirlarning o‘yinlari esa tushunarsiz bo‘ladi [3].

Ikkinchi tur uchun davrning sillik, kuchli asabiylashishlarsiz bola shakllanishiga xosdir. «Arafa»dan keyingi 11-13 yoshdagi qizlar va 14-16 yoshdagi o‘g‘il bolalarni o‘z ichiga olgan salbiy (negativ) faza bilan almashinadi. Atrof muhitga o‘tuvchi tez o‘zgaruvchanlik va bezovta holat, noziktabiatlilik, jismoniy va ruxiy darmonsizlik, o‘zidan norozilik kabilar bu davrga xos asosiy belgilardir.

Uchinchi turi esa voyaga yetmagan o‘smir shakllanishining ongli va faol ravishda o‘z-o‘zini tarbiyalash, havotir va inqirozlarni mustaqil yengish xosdir. Ko‘pchilik o‘smirlarda o‘ziga va atrofidagilarga bo‘lgan nafratni va uning natijasi bo‘lgan o‘zini yolgiz, begona va boshqalar tomonidan tushunilmagan sezish kabi holatlarni uchratishimiz mumkin. Bu vaqtda bola asosan, qarama-qarshiliklarga, salbiy ta’sirlarga o‘ta sezgir bo‘lib qoladi, bunday vaziyatlar bolada yoki agressiv o‘z-o‘zini ximoya qilishni yoki passiv melankoliyani keltirib chiqaradi. Salbiy faza yakuni – jismoniy yetilishning yakunlanish vaqtiga to‘g‘ri keladi.

Ijobiy (yondashuv) faza o‘smirning muhitning ijobiy taraflariga (aspektlariga) ta’sirchan bo‘lib qolishi bilan boshlanadi. Uning oldida xursandchilikning manbalari paydo bo‘ladi, ular «tabiatning hayajonlanishi» – go‘zallikni ongli hayajonlanishini qo‘yadi. Rivojlanish uchun qulay sharoitda xursandchilikning manbalari san’at va ilm bo‘lishi mumkin. Bularga «eng kuchli tangliklardan ham chiqarib yuboruvchi» muxabbat ham qo‘shiladi.

Bu yoshda jinsiy yetilish natijasida bola organizmida va ruhiyatida sezilarli o‘zgarishlar ro‘y beradi. Bu bolaning qiziqishlar sohasini anchagina o‘zgartiradi. Bunda qiziqishlar rivojlanishning ikki xususiyatini ko‘rishimiz mumkin:

Bir tomondan – yangi qiziqishlar va mayllarning paydo bo‘lishi: ijtimoiy hayotga, texnikaga, qaxramonlik va sarguzashtlarga boy kitoblarni o‘qishga, ko‘pchilikda sportga qiziqish kuchayadi;

Ikkinchi tomondan – avval o‘rnatilgan qiziqishlar tizimining yo‘qolishi: undagi negativizm, qarama-qarshi xarakter shundandir [4].

Shu ikki xususiyatning uyg‘unlashuvi bir qarashda g‘alati fakti – qiziqishlar kamayishi yoki ba’zan umuman yo‘qolishini xarakterlaydi. Bu vayron etuvchi faza davomida o‘smir o‘z bolaligiga barham beradi. Bu fazaga keskin o‘zgarish, jamiyat xulq-atvor qoidalariga bo‘ysunmaslik – o‘smir bolalar orasida uyushgan jinoyatchiliklarning paydo bo‘lishi ham shu kabilardandir.

Tarbiya o‘smirning to‘g‘ri rivojlanishiga asos bo‘ladi. Ota-ona, o‘qituvchi, tarbiyachilar shuni unutmaslik kerak, o‘smirning rivojlanishi u uchun eng og‘ir hayotiy jarayon. O‘smirni o‘sishi natijasida, uni hotirasi, nutqi, his-tuyg‘ulari o‘sadi. Har bir odamning bu davri atrof-muhit bilan, ijtimoiy rivojlanish bilan,



qobiliyati va qolaversa bolaning ruxiyati va uning yaqinlari bilan bog‘liq. Bu sabablar shaxsni tubdan o‘zgartirishi mumkin. Voyaga yetmagan bolalar o‘z-o‘zidan axloqan shakllanib qolmaydi. Ularning barchasi tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Jumladan, bola shakllanishida – tabiat, o‘simlik, hayvonot dunyosi bilan tanishib borishi, tashqi va ichki dunyo, odamlar bilan muloqot samarali natijalar beradi.

Voyaga yetmagan o‘smirning o‘ziga bo‘lgan talablari doimiy tashqaridan qo‘llab-quvvatlashlarga muxtoj bo‘ladi. Qator motivlarning muqim emasligi, gaplari va xatti-harakatlarining o‘zgaruvchanligi ham shu yerdandir. Bundan tashqari ushbu yoshdagilarga o‘ylangan masalalarni omadsizlikka uchrashiga sabab bo‘luvchi yuqori talablarning qo‘yilishidan dalolat beruvchi, maqsadlarning imkoniyatlar bilan mos emasligi xarakterlidir.

Katta yoshdagi o‘smirlarni atrofdagilarning fikriga nisbatan ko‘proq o‘z fikrida qolishi, ularning motivlari avvalambor o‘zining shaxsiy fikrini hisobga olgan holda shakllanishiga olib keladi va oxir oqibat ularning qaysarliklarida namoyon bo‘ladi.

Kichik yoshdagi o‘smirlarda maktab chegaralaridan tashqariga chiqish, kattalar hayotiga qo‘shilish, shuningdek ijtimoiy muhitda o‘z o‘rnini topib uni himoya qilish kabi yangi ehtiyojlar vujudga keladi. Yuqoridagi ehtiyojlar faqat yetakchi faoliyat (o‘qish) o‘zgartirilgandagina qondiriladi.

Ma‘rifatli oilalar o‘z bolalarining tarbiyasi xususida jiddiy shug‘ullanishadi va ular tarbiyasini uzluksiz nazorat qilib borishadi. Ular istiqbollarning saodatli yoki falokatli bo‘lishini yosh avlod tarbiyasiga bog‘liq holda ko‘rishadi. “Ular bir qavmning tarbiyasiga yetgan ozgina nuqson borib-borib katta zararga sabab bo‘ladi, deb aniq ishonadilar” [2]. Voyaga yetmagan bolalar orasida uyushgan jinoyatchiliklarni bartaraf etishning ijtimoiy pedagogik usullaridan biri – milliy tarbiyadir. Milliy tarbiya bo‘yicha yetuk mutaxassis professor M.Quronovning milliy tarbiyaning ahamiyati bilan bog‘liq quyidagi fikrlari e‘tiborga molik: “Dunyoda ro‘y bergan, yuz berayotgan har bir notinchlik, nizo, baxtsiz voqea, buzilgan oila, singan taqdir tarixi “lenta”sini orqaga qaytarsak, tarbiyaga borib taqaladi. “Oldin pul, keyin ma‘naviyat” yo‘lini tutish bo‘lib chiqadi. Ularning bu xatosi “dunyoda boy berilgan avlod” – “Lost generation” iborasini paydo qildi. “Lost generation” – (ingl.t) beqarorlik, depressiya sharoitida tug‘ilgan, xudbin, loqayd, jamiyatga foydasi tegmaydigan, shafqatsiz alamzada, ichkilikbozlikka berilgan, jinoiy ishlarga qo‘l urgan, qo‘lidan ish kelmaydigan, axloqsiz kishilar toifasidir.

Butun boshli oilalar moddiy boylik ortidan quvib ketishdi. Farzandlar tarbiyasini esa begonalarning qo‘liga topshirib qo‘yishdi. Tarbiyadan (!) vaqtlarini tejab, 10 pul foyda topishdi ham. Bugun esa... jonsarak bo‘lib, bolalarini qayta tarbiyalashga 1000 pul sarflashmoqda. Lekin samara 10



pullik bo'layotir. Chunki vaqt boy berilgan. Mana, sizga "oldin moddiy hayot, keyin ma'naviyat" deb yashashning ayanchli oqibati. "Boy berilgan avlod" muammosining pedagogik mahsuli. Tarbiya dastlab moddiyatga emas, ma'naviyatga asoslanishi va o'z vaqtida amalga oshirilishi ijobiy samara berar ekan. Tarbiya bilan bog'liq ommalashib ketgan bir rivoyatni ko'p eshitganmiz. Ota donishmanddan: "Bolamning tarbiyasini qachon boshlay?" deb so'rabdi. "Bolangiz necha yoshda?" deb qiziqibdi donishmand. "Bir oylik bo'ldi" degan javobni eshitgan donishmand: "Bir oy kechikibsiz", degan ekan. Ko'pchilik bolani tug'ilgan kundan boshlab qanday tarbiya qilish mumkinligini tasavvur ham qilolmaydi. Bola uch kunligidayoq onasini tanishiga ham ayrimlar ishonmas. Tadqiqotchi olimlar bir homilador ayolga har kuni ayni bir vaqtda faqat bitta ertakni aytib berishgan. Bola tug'ilib, olti yoshga yetganda turli ertaklarni aytib bera boshlashgan. Ayol homiladorlik paytida ertakka navbat kelganda, dastlabki jummalarni eshiti boq bola "Men bu ertakni bilaman" deb aytib bergan. Bu ilmiy haqiqat! Demak, bola onaning qornidalik paytidayoq dunyo bilan aloqada bo'lar ekan. Shundanmikan, donishmandlar "tarbiya bola tug'ilmasdan oldin boshlansa yana-da yaxshi" [5], deyishgan ekan.

Xulosa, voyaga yetmagan bolalarning bolalikdan bilib-bilmay yolg'on gapirishi, bironing narsasini so'ramay olishi, topshiriqni vaqtida bajarmasligi, belgilangan vaqtga kechikish kabi yomon xulqni odat qilishi keyinchalik qoidabuzarlik, huquqbuzarlik va jinoyatlarning sodir etilishiga olib kelishi mumkin. Sababi masalaning mohiyatini anglamaslik va tarbiyaning noqisligi bolani shunga odatlantirib qo'yadi. Natijada bola jinoyatga qo'l uradi. Ana shunda "kim aybdor?" deya, axtarishga tushiladi. "Bolaning yomon yo'lga kirib ketishiga kim aybdor?" degan savolga: ota-ona; maktab; militsiya; mahalla, qo'ni-qo'shni; televideniye, internet, telefon kabi javoblar keltiriladi. Aybdorni topish aksariyat holarda mushkulligicha qoladi. Bolalar o'rtasida salbiy hulqning namoyon bo'lishi va xulqiga xos bo'lgan barcha salbiy xislatlarni ilmiy jihatdan bilish ular orasida uchraydigan jinoyatlarning oldini olishni tashkil etishning tendentsiyalari muhim amaliy ahamiyatga ega.

#### АДАБИЁТЛАР:

1. Shavkat Mirziyoyev 2020 yilga "Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb nom berishni taklif qildi. / Xalq so'zi g. 24 Yanvar 2020
2. Аварин В.А. Психология детей и подростков. – Санкт-Петербург, 1998. – С. 308-309.
3. Махмудов Р.М. va b. Pedagogika. Ma'ruzalar kursi. – Toshkent, O'zIV Akademiyasi. 2014. - 204 b.
4. Murtozayeva M.M. Yoshlar orasida uyushgan jinoyatchiliklarni bartaraf etishning ijtimoiy-pedagogik va psixologik tendentsiyalari // Murabbiy mahorati. – Toshkent, 2020. – 2-son. – B. 15-17.
5. Quronov M. Bolam baxtli bo'lsin, desangiz. – Toshkent. "Ma'naviyat", 2013. – B. 44-45.